



OLIY MAJLIS SENATI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING TASHKILIIY JIHATLARI

Yangiboyev Farhod Rashidovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo
akademik litseyi huquq fani o'qituvchisi
93-769-95-89

Farhod.yangiboyev@list.ru

Huquqiy davlatchilikni shakllantirish ko'plab muammolarni bartaraf etish bilan bog'liq bo'lgan murakkab va davomli jarayondir. Parlamentarizm prinsiplari asosida faoliyat ko'rsatuvchi davlat institutlari bilan bog'liq masalalar O'zbekistonda huquqiy davlatchilikning qaror topishiga taalluqli muammolar silsilasida muhim o'rin tutadi. Chunki XXI asrning boshlariga kelib oddiy bir haqiqat - to'la vakolatga ega bo'lgan parlamentsiz mamlakatda to'laqonli demokratiya bo'lishi mumkin emasligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. Binobarin, fuqarolar demokratiya to'g'risidagi tasavvurlarini avvalo davlatni idora etishda o'zlari ishtirok etishlarining real imkoniyati bilan, qolaversa parlament orqali qonun ijodkorligi jarayoniga ta'sir ko'rsata olish imkoniyatlari bilan bog'laydilar. Ikki palatali parlamentda boshqacha, masalan, davlatning federal tuzilishi bilan bog'lik xususiyat ham bo'lishi mumkinligiga qaramay, konservatizm elementiga ega parlament g'oyasi ancha uzoq tarixga ega. E.H.Xalilov ta'kidlaganidek, «...ikki palatali tizimni tanlashning asosiy sababi - davlatning federativ tuzilishidadir, deyish to'g'ri bo'lmaydi. Ikki palatali tizim federativ davlatlar paydo bo'lishidan birmuncha avval yuzaga kelgan va uning



ildizlari uzoq tarixga ega»¹. U XIII asr oxirlarida Lordlar palatasi ta'sis etilgan Angliyani tarixiy misol tariqasida keltiradi.

Aslida «yuqori palata aslo federatsiya sub'ektlarini ifodalash uchun paydo bo'lmaganligini»² ko'rsatib o'tar ekan, L.V.Smirnyagin ham ayni shu fikrni bildiradi. U ham Buyuk Britaniyadagi Lordlar palatasini quyi palata faoliyatiga xos bo'lgan keskinlik va shoshma-shosharlikni yumshatishga qaratilgan aristokratlar majlisi sifatida yuqori palataning timsoli deb hisoblaydi. Bir qator nemis va avstriyalik olimlarning fikricha, yuqori palataning konservatik mohiyati bikameralizm g'oyasining o'zi singari aralash konstitutsiya to'g'risidagi antik ta'limotga borib taqaladi. Xususan, Avstriya Federal kengashining sobiq prezidenti, professor Gerbert Shambek yozadiki, «antik davrda davlatga ta'rif berishda bitta konstitutsiyaviy tizimda uchta elementni birlashtirishni, chunonchi monarxikni konsullar bilan, demokratikni qo'mitalar bilan va aristokratikni senatorlar bilan birlashtirishga urinishlar qilingan»³. Gerbert Shambekning fikricha, bugungi kunda ko'pgina yuqori palatalar, masalan AQSh, Fransiya, Ispaniya, Chexiya, Polsha va Italiya kabi mamlakatlarda (davlatning shaklidan va senatning vakolatidan qat'i nazar) senatga chuqur tarixiy nuqtai nazardan yondashmokda. «Bunday yuqori palatadan - siyosiy hokimiyat bilan bir qatorda uning a'zolarining alohida shaxsiy obro'ga ega bo'lishi umid qilinadi»⁴. Yuqoridagi fikrga qo'shilgan holda, ikki palatali parlament yuqori palata tufayli ancha barqaror vositadir, degan

¹ Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар / Масъул муҳ. Э.В.Воҳидов; М.М.Миролимов. - Т.: Ўзбекистон, 2001. - 153-бет.

² Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В.Смирнягин. - М.; Институт права и публичной политики, 2003. - С.9.

³ Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатной парламентской системн // Конституционное право: восточноевропейское обозрение. - 2003. - №1. - С.2.

⁴ Ўша жойда.



fikr bikameralizmni tushunishda hamma tomonidan qabul qilingan va asosiy fikr hisoblanadi deb hisoblaymiz. A.A.Azizxo'jaev bu fikrga xorij tajribasini o'rganish asosida olingan ayrim xulosalarni qo'shimcha qiladi. Chunonchi, u yuqori palata hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi organlari o'rtasida ko'prik vazifasini o'tashi kerak deb hisoblaydi. Bunga Senat majlislarida vitse-prezident raislik qiladigan AQShni, Lordlar palatasiga hukumat tomonidan tayinlanadigan lord-kansler boshchilik qiladigan Buyuk Britaniyani misol qilib keltiradi. «Bu esa parlamentga ijro hokimiyati bilan doimiy aloqada bo'lish, uning faoliyatidan xabardor bo'lish, maqsad-muddaolarni tezroq yetkazish imkonini beradi»⁵.

Shu tariqa , ikki palatali professional parlament shakllantirishning konstitusiyaviy –huquqiy asoslari yaratildi. 2004 yil dekabr - 2005 yil yanvar oylarida mamalakatimizda ilk bor ikki palatali parlamentga saylovlar o'tkazildi. Jumladan 2004 yil 26 dekabr va 2005 yil 9 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasiga va xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylovlar bo'lib o'tdi. 2005 yil 17-20 yanvar kunlari esa O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga saylovlar bo'lib o'tdi.

2005 yil 27 yanvar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 2 palata : Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senat (yuqori palata)dan iborat qilib shakllantirildi. Qonunchilik palatasiga 120 deputat saylandi . O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri saylandi.

Ikki palatali parlament tashkil etilgach, O'zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimiyat o'z taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarildi. Eng asosiysi, garchi qonunchilik jarayoni ancha murakkablashgan bo'lsa-da, qabul qilingan

⁵ Азизхўжаев А.А. Халк - ҳокимиятнинг бирдан-бир манбаи // Халк сўзи. - 2002 йил 19 январь.



qonunlarning sifati sezilarli darajada oshdi. Qonunlarni qabul qilishda siyosiy partiyalarning roli kuchaydi.

Ammo asosiy masala, ikki palatali Parlamentda Senatning roli nimadan iborat, va bugungi kunda, Senat dastlab undan kutilgan natijalarga erisha oldimi. Ushbu savollarga javob berish uchun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining tashkil qilinishing va faoliyatining huquqiy asoslariga to‘xtalib o‘timiz kerak va shundagina, bu savolning mohiyatini ochib berishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining faoliyatini tartibga soluvchi bir qator normativ huquqiy xujjatlar maqjud. Ularga birma bir to‘htalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Xulosa o‘rnida, yuqorida qo‘yilgan savolga to‘xtalib o‘tsak, Oliy Majlis Senati faoliyatini davlat hokimiyati organlari bilan o‘zaro munosabatini tahlil qilish orqali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining davlat hokimiyatidagi roli uning mamlakat huqumatini shakllantirishda ishtirok etishida, shuningdek, nazorat funksiyasini amalga oshirishida va qonun qabul qilish jarayonida ishtiroki bilan belgilanadi. So‘nggi yillardagi tendensiyadan kelib chiqadigan bo‘lsak, Oliy Majlis Senatining tashkil etilganligi Parlamentda qonun qabul qilinishida tortishuvchanlik prinsipining ko‘llanishi orqali, qabul qilinadigan qonunlarning sifatiga bevosita ta’sir kilganligini ko‘rishimiz mumkni. Bu natijaga, qonunni qabul qilishda har bir palata o‘zining faoliyat doirasidan kelib chiqib, qonun loyixasini kengroq tahlil qilishi va kelib chiqadigan xatoliklarni oldini olishga zamin yaratib berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Халилов Э.Х. Ўзбекистон Республикасининг қонун чиқарувчи олий органи сохта вакилликдан ҳақиқий парламентаризмга қадар / Масъул мух. Э.В.Воҳидов; М.М.Миролимов. - Т.: Узбекистон, 2001. - 153-бет.



2. Совет Федерации: эволюция статуса и функций / Отв.ред. Л.В.Смирнягин. - М.; Институт права и публичной политики, 2003. - С.9.
3. Шамбек Г.К. К вопросу о значении двухпалатной парламентской системы // Конституционное право: восточноевропейское обозрение. - 2003. - №1. - С.2.
4. Ёша жойда.
5. Азизхўжаев А.А. Халк - ҳокимиятнинг бирдан-бир манбаи // Халк сўзи. - 2002 йил 19 январь.